“RESPUBLIKA AHOLISINI RO‘YXATGA OLISH” MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Shoyimov Jahongir O‘tkir o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy Universiteti, 2-kurs magistranti

Qabul qilindi: 03.11.2025 **Tasdiqlandi**: 05.11.2025
Ko‘rib chiqildi: 04.11.2025

Kirish. Mamlakatimizda axborot resurslari, texnologiyalari va tizimlarini, shu jumladan axborot xavfsizligini ta’minlash tizimlarini yaratish va rivojlantirish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan axborot texnologiyalarini rivojlantirish, O‘zbekistin Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston-2030”[1] strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbrlari to‘g‘risida qarorida ham o‘z aksini topdi.

Ayni damda butun insoniyat axborot kommunikatsiya texnologiya-lariga extiyoj sezayotga bir vaqtda mamlakatimizda ham ushbu sohani rivojlantirish davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ijtimoiy soha va insonlarning kundalik hayotiga izchil joriy etish bo‘yicha muntazam keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan Prezidentimiz tomonidan ham ushbu sohani rivojlantirish uchun bir qator qonunlar imzolanib, sohaga kata e’tibor berilmoqda. Jumlada “Axborot texnologiyalari sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish «Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish, raqamli rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yoshlarimizni hozirgi zamon mehnat bozorida talab katta bo‘lgan kasblarni egallashlari va ulg‘ayib kelayotgan yoshlarni o‘z qiziqishlari va qobiliyatlaridan kelib chiqgan holda ulaga jahon standartlariga talablariga javob bera oladigan shart sharoitlar yaratib berish uchun respublikamizning barcha hududida IT markazlar barpo etildi. Shu bilan birga 2020 – yildan buyon “Raqamli Toshkent” kompleks dasturi amalga oshirilmoqda. Bunda, 2020 – 2022 yillarda hudud va tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish doirasida:

Aholi punktlarini Internet tarmog‘iga ulash darajasi, shu jumladan keng polosali ulanish portlarini 2,5 milliongacha ko‘paytirish, 20 ming kilometr optik - tolali aloqa liniyalarini qurish va mobil aloqa tarmoqlarini rivojlantirish orqali 78 foizdan 95 foizga yetkaziladi;

Hududlarni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirishning turli sohalarida 400 dan ortiq axborot tizimlari, elektron xizmatlar va boshqa dasturiy mahsulotlar joriy etiladi. 587 ming nafar kishini, shu jumladan “Bir million dasturchi” loyihasi

[1] O’zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi: https://lex.uz/ru/docs/-5030957

doirasida 500 ming nafar yoshlarni qamrab olish orqali kompyuter dasturlash asoslariga o‘qitish tashkillashtiriladi;

Barcha sohalarda raqamlashtirishning kirib kelishi, yuqori sur’atdagi taraqqiyot butun sanoatning rivojlanishida, ayniqsa, uzoq muddatli istiqbolimiz uchun katta rol o‘ynaydi.

Ta’kidlash lozimki, dunyo mamlakatlari tajribasida ilmiy tadqiqotlar, IT texnologiyalar, startap g‘oyalar, kompyuter savodxonligiga juda katta e’tibor beriladi. Faqatgina ilm-fan yutuqlari va yangi texnologiyalar orqali yuqori iqtisodiy o‘sishga erishishimiz mumkin. O‘tgan davrdan 2021 – yilgacha bo‘lgan AKT sohasida amalga oshirilgan keng ko‘lamli yangilanish va islohotlar, ularning natijalari haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, aholiga axborot – kommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish hajmi 2016 – yilda 5,2 trillion so‘mni tashkil etgan. 2016 – 2021 yillarda axborot – kommunikatsiya sohasini yanada rivojlantirish borasida olib borilgan keng ko‘lamli islohotlar, jumladan, davlat boshqaruv organlari, iqtisodiyot tarmoqlari va aholining IT – xizmatlarga bo‘lgan talabini qondirish, IT – tadbirkorlikni qo‘llab – quvvatlash, investitsiya loyihalarini amalga oshirish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar hajmini kengaytirish, narxlarni kamaytirish va sifatni yaxshilash borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida xizmatlar hajmi 2020 - yilda 12,9 trillion so‘mga yetkazildi.

Ayonki, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi islohotlarni muvaffaqiyatli yo‘lga qo‘yish, keyingi yillarda telekommunikatsiya tizimlari va axborot texnologiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan qator ishlar amalga oshirilib, soha ravnaqi ta’minlanmoqda.

Har qanday davlatning tarixi – bu, birinchi navbatda, unda yashaydigan xalqning tarixi, aholisining soni va tarkibi, uning iqtisodiy va ijtimoiy tavsiflarida o‘z ifodasini topadi. Aholi soni bo‘yicha aniq va yaxlit ma’lumotlar aholini ro‘yxatga olish asosida olinadi.

Aholini ro‘yxatga olish yakunlariga qarab o‘tmish va hozirgi davr haqida fikr va mulohazalar yuritish hamda kelajakni prognoz qilish mumkin bo‘ladi.

Aholini ro‘yxatga olish – bu mamlakat aholisining muayyan vaqtdagi “fotosurati”ni olish imkonini beruvchi umumdavlat miqyosidagi keng ko‘lamli tadbir bo‘lib, aholi to‘g‘risidagi ishonchli axborot manbai hisoblanadi.

Respublika aholisini doimiy ravishda monitoring qilib borish tizimini yaratish va avtomatlashtirish.

- Ushbu tizim orqali quyidagi masalalar hal qilinishi ko‘zda tutilgan;
- aholi qatlami haqidagi umumiy ma’lumotlarni olish,
- aholi haqida to‘liq ma’lumot asosida kelib chiqayotgan muammolarni bartaraf etish;
- hisobot va qaydnomalarni excel faylga o‘tkazish imkoniyati;
- kerak bo‘lgan hollarda ma’lumotlarni davlat tashkilotlariga berish;

Ushbu ishning o‘ziga xos tomonlaridan biri shundaki, Aholi haqidagi aniq va ishonchli ma’lumotlar orqali yurtimiz fuqarolariga yanada yengillik va imkoniyatlarni taqdim etadi.

Aholini ro‘yxatga olishning asosiy maqsadi O‘zbekiston Respublikasida aholi tarkibining holati va rivojlanish dinamikasi haqida mamlakatni sotsial-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlantirish sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash va amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishonchli va xolis axborotni olishdan iboratdir.

“Aholini ro‘yxatga olish” - O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning muayyan hududlarida o‘tkaziladigan, belgilangan sanada aholining demografik va ijtimoiy-iqtisodiy tavsiflarini belgilovchi shaxsga doir ma’lumotlarni yig‘ish hamda ularga ishlov berish davriy jarayoni hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “Berilganlar bazasini boshqarish tizimlari” Xakimov M.X. S.M. Gaynazarov (2015).
2. Statistika agentligining aholini ro‘yxatga olish sayti : https://census.stat.uz
3. "Educational Data Mining: Applications and Trends" –Cristóbal Romero, Sebastian Ventura, Mykola Pechenizkiy, and Ryan S.J.d. Baker (2014).
4. "Data Management for Researchers: Organize, Maintain and Share Your Data for Research Success" – Kristin Briney (2015).
5. "Database Systems: Design, Implementation, & Management" – Carlos Coronel, Steven Morris, and Peter Rob (2016).
6. "Database Systems: The Complete Book" – Hector Garcia-Molina, Jeffrey D. Ullman, and Jennifer Widom (2008).
7. "Information Storage and Retrieval" – Robert R. Korfhage (1997).